

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



#### 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 24 576,3 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga o‘tdi. Jumladan, dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 24 026,0 mlrd so‘mni (o‘sinh sur‘ati 106,0 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,2 mlrd so‘mni (100,3 %), o‘rmon xo‘jaligida 301,5 mlrd so‘mni (103,3 %), baliqchilik xo‘jaligida 248,7 mlrd so‘mni (103,5 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘shishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

#### Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi (yanvar-sentabr, mlrd so‘m)


	2023- yil	2024- yil	2025- yil
<b>Jami</b>	<b>18 881,7</b>	<b>20 677,3</b>	<b>24 576,3</b>

shu jumladan:

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar	18 466,5	20 221,7	24 026,0
O‘rmon xo‘jaligi	277,9	252,9	301,5
Baliqchilik xo‘jaligi	136,0	202,6	248,7
Ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar	1,3	0,1	0,2

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sinh sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil qildi.

## Viloyatda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘shish sur‘atlari



**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Ovchilik xo‘jaligi** — ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

**O‘rmon xo‘jaligi** – faoliyat turi o‘rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o‘rmon resurslaridan foydalanish, xususan o‘rmonchilik, o‘rmonzorlarni barpo etish va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog‘ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o‘sovchi o‘rmon mahsulotlarini yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan soha.

**Baliqchilik xo‘jaligi** – baliq ovlash va suv bioresurslarini, akvakulturani saqlash, suv bioresurslaridan olinadigan baliq va boshqa mahsulotlarni yetishtirish va sotish bo‘yicha faoliyat turi.

## Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

**O‘rmon xo‘jaligi**


**Baliqchilik xo‘jaligi**

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 97,8 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 1,2 % i o‘rmon xo‘jaligi va 1,0 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



**Viloyat boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining yuqori oʻsish surʼatiga ega tumanlar**





## 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

**Dehqonchilik.** 2025- yilning yanvar-sentabrida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8 310,5 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning shu davriga nisbatan o‘shir sur‘ati 113,3 % ni, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmidagi ulushi 33,8 % ni tashkil qildi.

**Hosilni yig‘ib olish.** Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 709 198 tonna (o‘shir sur‘ati 114,7 %) jami don, 612 188 tonna (112,2 %) boshqoli don, 528 381 tonna (112,1 %) bug‘doy, 39 923 tonna (115,0 %) makkajo‘xori, 68 103 tonna (94,8 %) kartoshka, 371 010 tonna (97,9 %) sabzavotlar, 280 230 tonna (113,0 %) oziqbop poliz, 73 621 tonna (106,7 %) mevalar va rezavorlar hamda 24 584 tonna (113,1%) uzum yig‘ib olindi.



	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermier xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da	tonna	o‘shir sur‘ati, % da
Don jami	709 198	114,7	624 310	113,0	38 746	216,4	46 142	96,6
Boshqoli don	612 188	112,2	550 002	111,5	22 475	312,3	39 711	88,2
shundan: bug‘doy	528 381	112,1	483 982	111,0	13 642	292,9	30 757	100,6
makkajo‘xori don uchun	39 923	115,0	29 826	122,2	8 437	94,1	1 660	122,4
Kartoshka	68 103	94,8	28 533	116,7	38 474	81,8	1 096	345,7
Sabzavotlar-jami	371 010	97,9	126 180	100,5	230 890	94,0	13 940	182,4
Poliz – jami	280 230	113,0	95 536	97,0	155 048	123,2	29 646	125,0
Mevalar va rezavorlar-jami	73 621	106,7	29 506	112,3	39 370	100,6	4 745	132,3
Uzum	24 584	113,1	8 066	121,2	14 991	100,7	1 527	775,1



**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**



**HUDUDLAR BO‘YICHA  
DON  
YETISHTIRISH**






## HUDUDLAR BO'YICHA MAKKAJO'XORI, DON UCHUN YETISHTIRISH



### Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Makkajo'xori don yetishtirishning eng katta hajmi 28 826 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 74,7 % i fermer xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 1 660 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 4,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 22,2 % ga, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 5,9 % ga kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA KARTOSHKA YETISHTIRISH



### Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 38,5 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 56,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 1 096,0 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan kuzatildi.


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 16,7 % ga o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 18,2 % ga kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH



### Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Sabzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 230,9 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 62,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 13,9 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 3,8 % i qishloq xo'jaligi korxonalarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 0,5 % ga o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida esa 6,0 % ga kamayish kuzatildi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 15 472,1 mlrd so'mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 2024- yilning shu davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 63,0 % ni tashkil etdi.

2025- yilning 1-oktabr holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 989,4 mingtani (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,2 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 280,2 mingtani (100,4 %), qo'y va echkilar bosh soni 2 516,1 mingtani (103,6 %), otlar bosh soni 32,8 mingtani (104,9 %) va parrandalar bosh soni 4 040,2 mingtani (103,6 %) tashkil qildi.



### 2025- yil 1-oktabrholatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo'jaliklari		Dehqon va tomorqa xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	bosh soni	o'sish sur'ati, % da	bosh soni	o'sish sur'ati, % da	bosh soni	o'sish sur'ati, % da	bosh soni	o'sish sur'ati, % da
Yirik shoxli qoramollar	989 366	101,2	69 900	110,7	883 783	100,8	35 683	95,4
Sigirlar	280 187	100,4	24 498	118,7	243 727	99,9	11 962	82,8
Qo'y va echkilar	2 516 143	103,6	468 807	104,0	1 600 520	100,5	446 816	116,3
Otlar	32 803	104,9	8 557	107,5	17 995	101,0	6 251	113,3
Parrandalar	4 040 189	103,6	228 879	75,2	1 892 815	100,6	1 918 495	112,1

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,3 % ni, fermer xo'jaliklarida 7,1 % ni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 87,0 va 8,7 % ni, qo'ylar va echkilar 63,6 va 18,6 % ni, parrandalar 46,8 va 5,7 % ni tashkil qildi.




## HUDUDLAR BO‘YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH


Viloyatda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G‘allaorol (17,5 %), Baxmal (17,1 %) va Zomin (12,6 %) tumanlari hissasiga, eng kichik ulushlar esa, Jizzax shahri (1,3 %) va Zafarobod tumani (4,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari Zarbdor (102,8 %) va Sh.Rashidov (102,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)



### Qoramollar bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy boshsoni 989,4 mingtaga yetdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2024- yilningmos davriga nisbatan 11,9 mingtaga (1,2 %) ko‘paydi.

- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 89,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 10,7 %, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,8 % ga o‘shish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SIGIRLAR YETISHTIRISH



Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (16,7 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (14,7 %) va Zomin (13,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng kichik ulushlar Jizzax shahri (1,4 %) va Mirzacho‘l tumani (4,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024-yilning yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘ati Mirzacho‘l tumani (102,4 %) da qayd etildi.

	Soni (ming bosh)
Jizzax sh.	4,0
Mirzacho‘l	11,8
Zafarobod	12,5
Arnasoy	13,6
Do‘stlik	15,1
Paxtakor	15,0
Yangiobod	16,5
Forish	19,9
Zarbdor	20,7
Sh.Rashidov	26,2
Zomin	37,0
G‘allaorol	41,3
Baxmal	46,7

### Sigirlar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 280,2 mingtaga etdi.
- sigirlar bosh soni 2024- yilning 1-oktabriga nisbatan 1,0 mingtaga (0,4 %) ko‘paydi.
- sigirlar bosh sonining 87,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 0,4 % ga o‘shish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (34,9 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Baxmal (13,1 %) va G‘allaorol (13,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Arnasoy (1,4 %) va Do‘stlik (1,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘atlari Arnasoy (109,4 %) va Zarbdor tumanlarida (108,3 %) qayd etildi.

Soni (ming bosh)



### Qo‘ylar jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 516,1 mingtaga yetdi.
- qo‘y va echkilar bosh soni 2024- yilning 1-oktabriga nisbatan 88,6 mingtaga (3,6 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 63,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 4,0 % ga o‘shish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO'YICHA PARRANDALAR YETISHTIRISH


Parrandalar umumiy bosh sonining eng katta ulushi G'allaorol tumani hissasiga (32,3 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (13,8 %) va Zafarobod (10,1 %) tumanlari ega bo'ldi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Yangiobod (1,2 %) va Do'stlik (1,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Sh.Rashidov tumanida (133,9 %) qayd etildi.



### Parrandalar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-oktabrholatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy boshsoni 4 040,2 mingtani tashkilqildi.
- Parrandalar bosh soni 2024- yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 141,8 mingtaga (3,6 %) ko'paydi.
- Parrandalar bosh sonining 47,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo'jaliklarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25 % ga kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA OTLAR YETISHTIRISH

Otlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (28,1 %) to'g'ri keldi. Shuningdek, yuqori ulushga Sharof Rashidov (15,5 %) va Baxmal (10,6 %) tumanlari ega bo'ldi.


Otlar umumiy bosh sonidagi eng kam ulush Jizzax shahri (0,7 %) va Do'stlik tumanida (0,8 %) kuzatildi.

Kuzatilayotgan davrda, 2024-yil yanvar-sentabriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Sh.Rashidov (112,4 %) va Do'stlik (115,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Soni (ming bosh)

Jizzax sh.	0,2
Do'stlik	0,3
Paxtakor	0,6
Yangiobod	0,7
Arnasoy	0,7
Mirzacho'l	1,9
Zafarobod	2,0
Zarbdor	2,7
Zomin	2,8
G'allaorol	2,9
Baxmal	3,5
Sh.Rashidov	5,1
Forish	9,2

### Otlar jami bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:


- Otlarning umumiy bosh soni 32,8 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2024- yil 1-oktabriga nisbatan 1 521 boshga (4,9 %) ko'paydi.
- Otlar bosh sonining 54,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaliklarida 7,5 % ga o'sish kuzatildi.



## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko'mak ko'rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 15 472,1 mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 % ni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 65,1 % ni tashkil etdi.

**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Barcha toifadagi xo‘jaliklar		Shu jumladan:					
			Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o‘shish sur‘ati, % da	miqdori	o‘shish sur‘ati, % da	miqdori	o‘shish sur‘ati, % da	miqdori	o‘shish sur‘ati, % da
Go‘sht, tirik vaznda, tonna	177 097,0	101,9	4 388,0	139,7	164 555,0	100,6	8 154,0	115,1
Sut, ming tonna	503,0	100,6	18,8	141,4	479,9	99,4	4,3	116,1
Tuxum, ming dona	301 951,0	109,0	8 502,0	42,3	152 021,0	100,7	141 428,0	133,6
Qorako‘l teri, dona	3 879,0	100,1	2 423,0	95,4	109,0	102,8	1 347,0	109,4
Ovlangan baliq, tonna	9 601,8	103,8	1 077,3	148,8	2 042,5	101,7	6 482,0	99,5


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 177,1 ming tonna go‘sht (2024- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 101,9 %), 503,0 ming tonna sut (100,6 %), 302,0 mln. dona tuxum (109,0 %) va 3 879,0 dona qorako‘l teri (100,1 %) yetishtirilib, 9 601,8 tonna baliq (103,8 %) ovlandi.




## HUDUDLAR BO'YICHA GO'SHT YETISHTIRISH

Hajmi (ming tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



### Jami go'sht yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 164,6 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 92,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Kuzatilgan davrda, go'sht yetishtirishning eng kam hajmi 4,4 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,5 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-sentabrda fermer xo'jaliklarida 39,7 % ga o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,7 % ga kamayish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 15,1 % ga o'sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO'YICHA SUT YETISHTIRISH



### Jami sut yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 479,9 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 95,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 4,3 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-sentabrda fermer xo'jaliklarida 41,4 % ga o'sish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,6 %ga kamayish, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 16,1 % ga o'sish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO'YICHA TUXUM YETISHTIRISH

Hajmi (mln. dona)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



### Jami tuxumyetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 152,0 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 50,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

Ko'rsatib o'tilgan davrda, tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 8,5 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,8 % i fermer xo'jalilarida kuzatildi.


2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, joriy yilning yanvar-sentabrida fermer xo'jaliklarida 57,7 % ga kamayish, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 0,7 % ga hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 33,6 % ga o'sish kuzatildi.




## HUDUDLAR BO‘YICHA BALIQ YETISHTIRISH

Hajmi (tonna)

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



### Jami baliq yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida baliq yetishtirishning eng katta hajmi 6 482,0 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 67,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2025- yil yanvar-sentabrda fermer xo‘jaliklarida 48,8 % ga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,7 % ga o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 0,5 % ga kamayish kuzatildi.